



YOQUBJON IS'HOQOV ILMIY FAOLIYATI VA ARXIVI

Muallif: Alisher Xalimjonov Soyibjon o'g'li¹

Affiliyatsiya: O'ZR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi
2-kurs tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20209109>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yoqubjon Is'hoqov ilmiy faoliyati va arxivi, arxivning o'ziga xos jihatlari, tasnifi va tavsifi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: arxiv, tasnif, hujjat, asarlar.

Yoqubjon Is'hoqov 1934-yilning 10-sentyabrida Andijon viloyati Shahrixon tumanidatug'ilgan. 1956-yilda Farg'ona davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1956n–1959-yillarda Shahrixonidagi 1-sonli o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyoti muallimi, Farg'ona davlat pedagogika institutida o'zbek adabiyoti tarixi o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 1960-yildan O'zFA Til va adabiyot institutida kichik ilmiy xodim, 1961–1963-yillarda shu institut aspiranti, 1963-yili professor Hamid Sulaymon rahbarligida "Alisher Navoiyning ilk lirikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1963–2001-yillar davomida institutning kichik ilmiy xodimidan tortib yetakchi ilmiy xodimi lavozimlarida faoliyat yuritgan [1:3].

Olim ilmiy biografiasini tuzishda 2009-yilda "Yoqubjon Is'hoqov – mumtoz poetika tadqiqotchisi" mavzusida malakaviy bitiruv ishi yozgan O'zMU talabasi Umida Yusupova tomonidan tuzilgan "So'z san'ati so'zligi" kitobiga qilingan ilova [1:10] va olim tomonidan 2025-yilda berilgan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyidagi arxivi asos qilindi.

Yoqubjon Is'hoqovning ilmiy faoliyatini tadqiq etishda yuqoridagilar bilan bir qatorda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi "Shoir va ijodkorlar arxivi" fondidagi olim arxivi asosida tadqiqot olib borildi. Olimning muzeydagi arxivi va e'lon qilgan ilmiy ishlari orqali ilmiy faoliyati, biografiasini tadqiq etildi. Arxivi tafsiflandi, katalogi yaratildi va ilova qilindi.

Yoqubjon Is'hoqov ilmiy faoliyati o'tgan asrning 60-yillar boshida Alisher Navoiyning yoshlik davrini o'zida aks ettirgan "Ilk devon"ning tadqiqi bilan boshlangan. Bo'lajak olim "Ilk devon" haqida umumiy ma'lumot berish bilan birga, bu devonning "Xazoyin ul-maoniy" devoni bilan qiyoslash, uni ilmiy tekshirish dolzarb ekanligini ta'kidlaydi. Yoqubjon Is'hoqov fikricha, har ikkala devon tartib qilingan oraliq vaqt 30 yil va shu vaqt davomida Navoiyning ijodiy dunyoqarashi ham o'zgargan, ijodiy kamolotga erishgan [3:56]. "Navoiyning ilk devonini tekstologik tekshirish prinsplari" maqolasida Navoiyning 25 yoshgacha bo'lgan davridagi she'rlarining ishonchli matnini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib olganligini aytgan [4:38], ammo biz arxivni tadqiq etish davomida Yoqubjon Is'hoqovning "Ilk

devon"ning ishonchli yoki tabdil qilingan matnini ko'rmadik. Shunday bo'lsa-da, olim devon matnini tekshirishda ikki usul: imlo va ma'noga ta'sir qiladigan farqli jihatlarni tekshirib chiqqan. Tadqiqotimizning 3-bobida shu xususida to'xtalamiz. "Alisher Navoiyning ilk lirikasi" monografiyasi 1965-yili ilmiy rahbar Hamid Sulaymon boshchiligidagi muvaffaqiyatli himoya qilindi va shu yili keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Bu dastlabki murakkab va g'oyat katta izlanish adabiyotshunos olim Botir Akramov e'tirofiga sazovor bo'ldi [9:100].

1960-yillardan boshlab 70-yillarga qadar Yoqubjon Is'hoqov turli gazeta va jurnallarda, ilmiy konferensiyalarda, to'plamlarda o'zining ilmiy izlanishlarini e'lon qilib bordi. Arxivdagi Yoqubjon Is'hoqovning 1967-1971-yillar uchun tayyorlagan hisobotida quyidagilarni bilib olish mumkin:

1. Sektor rejasi bo'yicha. 4 jildlik adabiyot tarixi uchun amalga oshirilgan ishlari: "Bayoz va bayozchilik tarixi", "Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodi", "Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si", "Navoiy lirikasi" (olim buni qayta ishlayotganini ta'kidlab o'tadi, va so'nggida "Navoiy lirikasining asosiy janrlari" nomi ostida e'loq qilinadi). Yuqoridagi izlanishlar "O'zbek adabiyoti tarixi 4 jildlik uchun tayyorlangan bo'lib, ularning hammasi 1976-78-yillarda nashr etilgan. 4-jildning 1-kitobi uchun "XIX asrning birinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti" uchun reja tuzgan [6:157-hujjat].

2. Rejadan tashqari chop etilgan ilmiy ishlar. Yoqubjon Is'hoqov ilmiy to'plamlarda "Navoiy va Xusrav Dehlaviy", "Navoiy lirikasidagi bir usul haqida"; ilmiy jurnallarda, ayniqsa, "O'zbek tili va adabiyoti"da, 30 dan ortiq maqolalar; ensiklopediya uchun klassik adabiyot va klassik poetika bo'yicha so'zliklar tuzilgani va 25 ta atrofida maqola yozganini qayd etib o'tgan [6:157-hujjat].

3. Ilmiy dokladlar, 20 dan ortiq dissertatsiyalar uchun taqrizlar yozganligi, G'afur G'ulom nashriyatining 50 dan ortiq ishlarga taqriz, o'sha davrdagi turli ijtimoiy ishlarda faol bo'lganini qayd etib o'tgan.

70-yillar boshida "So'z san'ati so'zligi" asari uchun asos bo'lgan mumtoz she'riy san'atlar haqidagi turkum maqolalar "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilina boshlanadi. "Klassik adabiyot poetikasidan ma'lumotlar" maqolasi shu turkumdagi so'zliklar uchun muqaddima vazifasini o'taydi [8:121]. Yoqubjon Is'hoqov o'zidan oldingi amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etib, ilmi bade'-she'riy san'atlar uchun maxsus ishlar e'lon qilinmaganini qayd etib o'tadi. Mumtoz adabiyotimizning badiiy sarchashmalarini atroflicha o'rganishga yordam beradigan maqolalar to'plami 1973-yilgacha e'lon qilindi.

1980-yillar mobaynida Yoqubjon Is'hoqov mumtoz poetikaning nazariy masalalari, navoiyshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirdi. Jumladan, 1983-yili "Navoiy poetikasi" ("Xazoyin ul-maoniy" asosida) nomli monografiyasini e'lon qildi [9:167].

Mustaqillik sharofati bilan Yoqubjon Is'hoqov boshqa adabiyotshunoslar, tarixchilar, dindorlar qatorida adabiyotim va Islom dini mushtarakligi, tasavvuf va adabiyot masalalari to'g'risida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Uning "Alisher Navoiy ijodida komil inson muammosi", "Jomiy va malomatiya ta'limoti", "Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining mushtarak va o'ziga xos tomonlari", "Navoiyda himmat mafhumi", "Navoiy va naqshbandiya ta'limoti" kabi maqola va tezislari shu yangilanish va qayta qadriyatlarimizga erishgan istiqbol ne'matlari qatoridan. Shu o'rinda olimning arxividan joy olgan 1994-yil uchun ishlab chiqqan shaxsiy ish rejasini havola etamiz:

“Mavzu” Naqshbandiya ta’limoti va o‘zbek adabiyoti.

1. Chorakda yoziladi: Naqshbandiya ta’limotiga doir manbalar xarakteristikasi, o‘ganilishi tarixi (o‘tmishda va hozirgi zamonda) va galdagi vazifalar.

2. Chorakda: Bahouddin Naqshband hayoti va ta’limotining qisqacha xarakteristikasi.

3. Chorakda: Naqshbandiya tariqatining genezisi masalasi.

4. Chorakda. Naqshbandiyaning o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi (XIV asrning 1-yarmida)”[10:162-hujjat]. Oradan bir yil o‘tar-o‘tmas “Tasavvuf va o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti” monografiyasini tayyorlaydi. Lekin bizga ma’lum bo‘lmagan sabablarga ko‘ra monografiya yozilgan yili emas, balki 2002-yili “Tasavvuf va o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti” nomi ostida e’lon qilindi.

Mumtoz adabiyotning ilmi bade’-she’riy san’atlar ilmini to’laqonli bilish uchun hozirgi zamonda adabiyotshunos Yoqubjon Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” asari muhim qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Hech qaysi asar dastlabki varinatlar mukammallik kasb eta olmaydi. U avvalgi va keyingi nashrlar orasida sayqallanadi va rivoj topadi. “So‘z san’ati so‘zligi” asarining 2006-yilda chop etilgan nashrida 49 ta she’riy san’at haqida maqolalar kiritilgan. 2014-yilgi to’ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashrida maqolalar salmog‘i ancha kengayib 145 tani tashkil etgan. Har ikkala nashrni ham filologiya fanlari nomzodi Olim Oltinbek tayyorlagan. Ma’lum bir ilmiy asar uchun olim bir qancha ilmiy asarlarni o‘rganadi va ularni qiyoslaydi. Muallif o‘z ishida mumtoz adabiyotning muhim qismlarida biri bo‘lmish ilmi bade’ haqida ma’lumot bergan.

Yoqubjon Is’hoqov ilmiy faoliyatiga o‘z davridagi adabiyotshunoslardan B.Akramov[9:47], N.Komilov, S.Olimov[12:75], B.To‘xliyev, H.Homidov, M.Kenjayeveva [13:87], I.Ganiyeva, N.Afaqova[14:120], D.Salohiy[15:108], D.Yusupova [16:90] kabilar o‘zlarining maqolalari va taqrizlari bilan Yoqubjon Is’hoqov faoliyatiga baho berganlar.

Olim faoliyatiga Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyoti muzeyi bosh xazinaboni A.Eshonboboyev 3 yo‘nalishda: navoiyshunoslik, matnshunoslik va adabiyot nazariyasi doirasida baho beradi. A.Eshonboboyev Y.Is’hoqovning “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” monografiyasiga baho berar ekan Navoiyning adabiy an’anaga bo‘lgan munosabati, g‘azallardagi syujetlilik, tasavvufona yozilgan g‘azallar bilan dunyoviy ruhdagi she’rlarni o‘zaro farqlay olish jihatlariyuksak baho beradi[17:250].

2025-yilning 29-yanvarida O‘z FA Alisher Navoy nomli Adabiyot muzeyining O‘zbekiston shoir va yozuvchilari arxiviga qabul qilindi. Yoqubjon Is’hoqov arxivi hujjatlari orasida olim tomonidan nashr qilinmagan deya izoh qoldirilgan izlanishlari ham mavjud. Ushbu arxivda olimning asarlari, turli ilmiy va publististik maqolalari, ilmiy konferensiya uchun tayyorlagan nutqlaridan tortib qo‘lyozma va mashinkadan chiqqan nusxlari bor.

Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, Yoqubjon Is’hoqovning kirill yozuvida va qisman arab grafikasi asosida yozilgan qo‘lyozmalari ham mavjud. Olim arxivini tavsiflashda materiallar yirik asarlardan boshlanib, maqola va kichik qaydlargacha izchil tartibda tasniflandi. Har bir hujjatga qisqacha tavsif berildi. Arxivdagi har bir hujjat quyidagi tartib bo‘yicha tavsiflandi:

1. hujjatning inventar raqami;
2. asar nomi;
3. janri;
4. yozuv uslubi;

5. qog'oz formati;
6. qisqacha izohi;
7. yozilgan yili;
8. hujjatlar soni;
9. hujjat miqdori.

Masalan, 1. **“Alisher Navoiyning ilk lirikasi” monografiya.** *Yoqubjon Is'hoqovning Alisher Navoiy yoshlik chog'larini qamrab olgan ijodining ilmiy tadqiqi. Unda “Ilk devon” deya mashhur bo'lgan qo'lyozmna devoni tadqiq etilgan.*

*Hujjat 21*30 sm formatli oq qog'ozga yozilgan. Hujjatning ba'zi qismlari qora va ko'k rangli siyohda tahrir qilingan. 134-155 sahifalar yo'q. “Adabiyot muzeyi arxiviga”, deb yozilgan.*

Mashinkada. Kirill yozuvida. O'zbek tilida. Toshkent, 1965-yil, 1 ta hujjat. 183 v.

Yoqubjon Is'hoqov arxiv hujjatlarini tartibga keltirish jarayonida materiallarni ierarxik tizimlashtirish tamoyili (kattadan kichikka) qo'llanildi. Ushbu tamoyil asosida hujjatlar ilmiy ahamiyati va tuzilish xususiyatidan kelib chiqib, avval ilmiy monografiyalar, undan keyin ilmiy maqolalar, maqolalarning qoralama variantlari, ular uchun tayyorlangan qayd materiallari, hisobotlar hamda kundalik yozuvlar ko'rinishida izchil tasniflandi.

Arxiv hujjatlarini tadqiq etish davomida ilgari e'tibordan chetda qolgan va ilmiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan qator materiallar aniqlanib, ular tadqiqot doirasida tahlil qilindi. Jumladan, Yoqubjon Is'hoqov “Navoiy qomusi” uchun ayrim maqola-so'zluqlar yozgan, lekin Sobiq Ittifoq davrida “Navoiy qomusi” yaratilmay qolib ketgan. Shunday bo'lsa-da, bu qomus O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti tomoni “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” nomi bilan 2004-yilda nashr etildi. Albatta, mustaqillik davri mevasi bo'lgan bu qomus, mazmun jihatdan ham, undagi maqolalar qamrovi jihatdan ham originallik kasb etadi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Yoqubjon Is'hoqov arxivining 3-raqamli hujjatida olimning Navoiy qomusi maqolalar tayyorlaganligi va qomus uchun 59 ta maqola tanlab olinganini qayd etilgan. Filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Rafiddinov qabul qilib olganligini sana va imzo bilan qayd etgan.

Olim o'zi tomonidan “Navoiy qomusi” uchun deb atalgan papka tuzgan va unga 72 ta turli hajmdagi maqolalar kiritilgan. Asosan maqolalar so'z san'atlar haqida bo'lib ular quyidagilar: *Axiy, Axiy uyushmasi, Ilk devon, Badeye ul bidoya, Navodir ush shabob, G'aroyib us sig'ar, Navodir ush shabob, Badoye ul vasat, Favoyid ul kibar, Xazoyin ul maoniy, Navoiy taxallusli shoirlar, Ibhom, Izdivoj, Ittifoq, Ihom, Zulqofiyatayn, Tazmin, Tashobeh ul atrof, Radd ul matla', Muxammas, Irsoli masal, Alif, Be, Pe, Te, Se, Chim, Jim, He, Xe, Dol, Zol, Re, Ze, Sin, Shin, Sod, Zod, Te, Ze, Ayn, G'ayn, Fe, Qof, Kof, Mim, Vov, Lom, Nun, He, Lom alif, Yo.*

Keltirilgan maqolalar ichida keyinchalik “So'z san'ati so'zligi” kitobiga kiritilganlari ham bor. Ular qisman yoki qayta ishlangan holda qo'shilgan. Shu qatorda “Navoiy ensiklopediyasi”ga kiritilgan turkum maqolalar ichida muallaiflar qatorida Yoqubjon Is'hoqov nomi ham uchraydi, ammo u maqolalar, nafaqat Yoqubjon Is'hoqov, boshqa filolog olimlar tomonidan ishlanganini ko'rib olish mumkin.

“Isyon”, “Ilk devon”, “Badoye ul bidoya”, “Navodir ush shabob”, “Xazoyin ul maoniy”, “Radd ul qofiya” (ushbu maqola “O'zbek tili va adabiyoti” jurnalida va “So'z san'ati so'zligi”da qisman berilgan), “Musarra kabi mazmundagi maqolalar uchrasada, Alif, Be, Pe, Te, Se, Chim, Jim, He, Xe, Dol, Zol, Re, Ze, Sin, Shin, Sod, Zod, Te, Ze, Ayn,

G'ayn, Fe, Qof, Kof, Mim, Vov, Lom, Nun, He, Lom alif, Yo kabi maqolalar 2024-tili chop etilgan "Navoiy ensiklopediyasi"da uchramaydi.

"O'zbek klassik adabiyoti asarlari transliteratsiyasida punktuatsiya masalasiga doir (Navoiy poeziyasiga doir)" maqolasi matnshunoslik sohasidagi o'zgacha qarashdagi maqola bo'lib, olim uni muhokama tarzda tayyorlaydi-da, nashr etmaydi. "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida janrlar" nomli kichik risola "O'zbek adabiyoti tarixi" 4 tomlik kitobi uchun yozilgan. Hujjat 21*30 sm o'lchamdagi oq qog'ozda. Muallif qistirgich bilan kichik qog'ozda 1-varaqqa "O'zbek adabiyoti" tarixi (inqilobgacha)ning yangi nashri uchun yozilgan bobga (*nashr etilmagan*)Y. Is'hoqov" deb yozilgan. Asar ko'rsatilgan davrdagi Muqimiy, Furqat. Nodim, Miriy, Umidiy kabilarning ijodi janr nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

XX asrning 70-yillarda qizg'in adabiy munozaraga sabab bo'lgan "Gul va Navro'z" dostonining muallifi Lutfiy emas, balki Haydar Xorazmiy ekanligiga doir bahslarga Yoqubjon Is'hoqovning "Gul va Navro'z" dostonining muallifi masalasi" maqolasi oz emas ko'p emas 4 marta qayta-qayta yozilgan va tahrirlangan. Arxiv hujjatlarni tadqiqi etish jarayonida "Gul va Navro'z" bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlarga doir materiallar quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

"Gul va Navro'z" muallifi masalasi yuzasidan to'plangan materiallar jamlanmasi. Hujjatlar quyidagilardan iborat:

- "Catalogue" turkiy qo'lyozmalar katalogidan ko'chirma. A5 formatdagi qattiq qog'ozda. Varaqlar qisqich bilan jamlangan. Sahifalar raqamlanmagan. Avtograf. Arab va kirill yozuvida. Ingliz va turkiy tilda. 1971-yil. 22-iyun. 1 ta hujjat. 6 v.
- "Katalog". Arab yozuvida. Turkiy tilda. 1 ta hujjat. 3 v.
- "Gul va Navro'z" dostonidan ko'chirma. Arab yozuvida. Turkiy tilda. 1 ta hujjat. 2 v.
- Xaydar Xorazmiy taxallusi va ismi haqida qaydlar. Arab yozuvida. Turkiy, forsiy tillarda. 1 ta hujjat. 6 v.

"Gul va Navro'z" uchun kerakli materiallar. Turli o'lchamdagi kartochkalarda. 1 ta hujjat. 14 v.

Umuman olganda, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida o'zbek xalq yozuvchi va shoirlarining shaxsiy arxivlari bilan bir qatorda, Aziz Qayyumov, Porso Shamsiyev, Suyuma G'aniyeva, Naim Karimov kabi adabiyotshunos olimlar arxivlari ham saqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Yoqubjon Is'hoqovning shaxsiy arxivini o'rganish misolida fanda hali e'lon qilinmagan ilmiy ishlari, adabiy-estetik qarashlari hamda tadqiqotlarining shakllanish tarixini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot arxiv hujjatlarini kompleks tarzda o'rganish yo'lida muhim, biroq dastlabki bosqichlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B 320.
2. Is'hoqov Y., "Navoiyning ilk devoni", O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1961-yil, 5-son.
3. Is'hoqov Y., "Navoiyning ilk devonini tekstologik tekshirish prinsplari", O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1962-yil, 4-son.
4. Akramov B., Mustaqil daho. Sharq yulduzi jurnali, 1966-yil, 6-son.
5. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 157-hujjat.

6. Is'hoqov Y., "Klassik adabiyot poetikasidan ma'lumotlar", O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1970-yil, 1-son.
7. Is'hoqov Y., Navoiy poetikasi. – Toshkent, Fan nashriyoti, 1983. – 167 b.
8. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 162-hujjat.
9. Akramov B., Mustaqil daho. Sharq yulduzi jurnali, 1966-yil, 6-son.
10. Komilov N., Olimov S., Navoiy poetikasiga taqriz. O'zbek tili va san'ati gazetasi, 1984-yil.
11. To'xliyev B., Homidov H., Kenjayeva M., Tasavvuf va o'zbek adabiyoti, O'zbek tili va san'ati gazetasi, 2003-yil, 6-son.
12. Ganiyev I., Afaqova N., Oz va soz yozish san'ati, O'zbek tili va san'ati gazetasi, 2006-yil.
13. Salohiy D., So'z sadaflari shodasi, O'zbek tili va san'ati gazetasi, 2007-yil.
14. Yusupova D., Ilm sharofati, O'zbek tili va san'ati gazetasi, 2014-yil.
15. Eshonboboyev A., Mantiq – bosh mezon. – Toshkent, Javohir-ilm-nashr, 2024. 250-b.
16. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 3-hujjat.
17. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 74-hujjat.
18. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 77-hujjat.
19. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 78-hujjat.
20. Is'hoqov Y., "Navoiyning ilk devoni", O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1972-yil, 1-son.
21. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Yoqubjon Is'hoqov arxivi, 136-hujjat.